



## “ SHUBHA” HIKOYASIDA NOGIRON QIZ KECHINMALARINING IFODALANISHI

Vayisova Dilnurabonu Nabijon qizi

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8027331>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-June 2023 yil

Ma'qullandi: 05-June 2023 yil

Nashr qilindi: 09-June 2023 yil

### KEY WORDS

Bengal, Shubha,  
adabiyotshunoslik, soqov,  
Tagor, hind, ma'rifat.

### ABSTRACT

*Adabiyotshunoslikning turli janrlarida ijod qilgan shoir, xalqaro Nobel mukofotining laureati Robindranath Thokurning shaxsiyati bizga ma'lum. Maqolada jahon adabiyotining buyuk arbobi hisoblangan adibning "Shubha" nomli hikoyasidagi nogiron qiz va undagi ruhiy kechinmalar yoritiladi.*

Hind adabiyoti deganda hindlarning mashur "Mahobharat", "Panchatantra", "Ramayana", "Kalila va Dimna" asarlari ko'z oldimizda gavdalanadi. Bu asarlarsiz hind adabiyotini tasavvur qilish qiyin. Jumladan, Tagor ham mana shu adabiyotning davomchisi hisoblanadi. Hind adabiyotini ma'rifat kitobi desak, Tagor ijodini mana shu kitobdagi hali o'qib tugallanmagan sahifalarga qiyoslash mumkin. Chunki Tagor umri davomida hind adabiyotida o'ziga xos ijod maktabi yaratdi. Adabiyot, xalq hayotining bir bo'lagiga aylangan edi. Shuning uchun ham uning 1911-yilda vatanparvarlik ruhida bitgan "Xalq qalbi" nomli qo'shig'i Hindiston Respublikasining milliy madhiyasiga, 1913-yilda yaratgan "Mening oltin Bengaliyam" qo'shig'i esa Bangladesh Xalq Respublikasining milliy madhiyasiga aylangan.

Mavzu tadqiqi. Robindranath Thokur haqidagi dastlabki tadqiqotlar XX asr boshlarida Abdulhamid Cho'lpon va Abdurauf Fitrat tomonidan amalga oshirilgan. Keyinchalik uning sakkiz jildlik asarlari (1958-1965y.) o'zbek tilida nashr etildi.

Robindranath Thokurning roman va hikoyalari Sharif Tolib, Odil Rahimiy, To'xtasin Jalolov, Amina Rajabova, Qodir Mirmuhamedov, S.Xudayberganov, S.Abduqahhorov, A.Isroilovlar tomonidan, she'rlari Mirtemir, Shuhrat, Erkin Vohidov, Maqsud Shayxzoda, Jumaniyoz Jabborov, Shukrullo, Yusuf Shomansur kabi ijodkorlar tomonidan tarjima qilinib o'quvchilarga taqdim etilgan.

Thokur ijodi rang-barang. U adabiyotning turli janrlarida ijod qilgan. Xususan, adib ijodida hikoya janri alohida ahamiyatga ega. Hikoyalarda inson tabiatidagi baxillik, xasislik, ta'magirlik, nafs kabi illatlarga, xalq orasidagi toifaviy bo'linishlarga qarshi nafrati ochiq-oydin aks ettirilgan bo'lsa, oddiy, sodda odamlarga achinish tuyg'ulari ifodalangan. "Shubha" hikoyasining bosh qahramoni, Banikonxtaning kenja qizi bo'lib, uni Shubha deb chaqirar edilar. U tug'ma nogiron, ya'ni soqov edi. "Shubha tildan mahrum bo'lsa ham, lekin ko'zlari qora, shahlo, kipriklari uzun, lablari qiz qalbida tug'yon urgan hislarni aks ettirib, gul bargiday

titrab turardi"[2.324-b]. Banikonxtaning Shubhadan boshqa yana ikkita qizi bor edi, lekin u boshqa qizlariga nisbatan ko'proq Shubhani yaxshi ko'rar edi. Onasi esa aksincha, qiziga tinchlik bermasdi. Bu bilan Shubhani onasi yomon ko'radi deyolmaymiz. Chunki qiz bola otasiga qaraganda, onasiga juda yaqin bo'ladi. Asarda Shubhaning onasi ham qizining taqdiriga befarq bo'lmagan, ammo undagi nuqsondan onasi ham havotirlanar, undagi nuqson esa onani nomusga qo'yardi. Boshqa qizlarini turmushga berib uyli – joyli qilgan-u, lekin Shubhaning taqdiri ota-onasini havotirga qo'ygan edi.

Shubha doimo yolg'izlikka intilar, chunki undan bolalar hayiqar, u bilan hech kim o'ynamasdi. U go'yoki osmondagi oydek tanho edi. Shubhaning do'stlari ham yo'q emas. Molxonada Sharbashi va Panguli degan ikkita sigir, bulardan boshqa yana echki bilan mushuk ham uning do'stlari edi. To'g'ri, hayvonlar o'z nomini qizning og'zidan hech eshitishmagan, biroq u gapirolmasa ham hayvonlar uni juda yaxshi tushunardilar. Faqat hayvonlar emas, odamlar orasida ham Protap ismli bola Shubhaning do'sti edi. Protap ishining tayini yo'q, yalqov bola edi. Shubha turmushga chiqayotganini ham Protapdan eshitadi.

Yozuvchi asarda soqov qizni sog' odam bilan ham taqqoslaydi: "Fikrimizni birovga bayon qilish uchun qanchadan qancha urinamiz. Yetarli darajada ravshan bayon etlolmasak, fikrimizni noto'g'ri tushunadilar. Ammo qizning qora ko'zlari so'zga muhtoj emas, ular xuddi yurakning o'zini ifoda etadilar: uning tuyg'ulari goh alanganib, goh zaif miltillaydi, goh yolqinlanib ketib, goh horg'in so'nadi, goh botayotgan oydek osuda boqib, goh osmon gumbazini yoritib o'tgan chaqmoqdek porlaydi"[2.324-b].

Yozuvchi hikoyada Hindistondagi urf-odat va an'analarni ham keltirib o'tadi, kelimga mos kuyov tanlash va qizga sep yig'ish kabi. Hikoya Shubhaning turmushga chiqishi, qizning soqovligini bilishgandan so'ng, erining ikkinchi marta e'tibor bilan tili bor qizga uylangani bilan achinarli tugaydi. Shubha ham baxtli bo'lishga, boshqalardek go'zal hayot kechirishga haqli edi, ammo taqdirning unga bergan ayanchli qismati shu edi. U soqovligi tufayli o'zida kechayotgan tuyg'ularni oshkor qila olmasa-da, undagi ichki kechinmalarni hikoyani o'qiyotgan kitobxon anglab yetadi. Thokurning mahorati ham ana shunda

Xulosa. Yozuvchi asarda Shubhani tasvirlar ekan, go'yo o'quvchi Shubha o'rnida gapirolmay, o'z kechinmalarini bayon qila olmay qiynalayotgan qiz obrazi o'rnida tasavvur qilib, o'sha jarayonda o'zini yashayotgandek his qiladi. Shubxa hikoyasini shunchaki, oddiy o'qib bo'lmaydi. Bu hikoyani o'qigan har bir kitobxonni chuqur o'ylantirishga, mulohaza yuritishga, hayotning achchiq saboqlaridan xulosa chiqarishga undaydi. Aslida, Shubha nogiron emas, balki uni tushunishni xohlamagan odamlar, Shubha yashagan jamiyat nogirondir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hoshimov I., Rabindranat Tagor (hayot va ijodiy yo'li), T., 1961
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Тагор,\\_Рабиндранат](https://ru.wikipedia.org/wiki/Тагор,_Рабиндранат).
4. Olimov.S.Adabiyot 8-sinf uchun darslik./ S.Olimov, S.Ahmedov, R.Qo'chqorov. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019, -352 b.
5. [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz)
6. [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz)